

XIVA XONLIGIDA SAVDO SOTIQ MASALALARIDA HUNARMANDCHILIKNING O'RNI

Tajiyeva Gulnoza Saporbayevna

Urganch Innovatsion Universiteti tarix yo'nalishi I bosqich magistranti,

Urganch tuman 2-son Politexnikum tarix fani o'qtuvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14799891>

Annotatsiya: Ushbu tezisda Xiva xonligidagi savdo sotiq jarayonlarida hunarmandchilikning o'rni va hunarmandchilik turlari haqida bayon qilingan.

Kalit so'zlar: hunarmandchilik, savdo-sotiq, to'qimachilik, kulolchilik, metalga ishlov berish, zargarlik, gilamchilik.

Аннотация: В данной диссертации описывается роль и виды ремесел в торговых процессах Хивинского Ханства.

Ключевые слова: ремесленные изделия, торговля, текстиль, керамика, металлическая работа, ювелирные изделия, ковер.

Annotation: This thesis describes the role and types of handicrafts in sales processes of Xiva dynasty.

Keywords: crafts, trade, textiles, ceramics, metalworking, jewelry, carpet.

Kirish: Xiva xonligi, XVI asrda tashkil topgan va O'zbekistonning tarixiy mintaqalaridan biri sifatida o'zining savdo-sotiq va hunarmandchilik sohalarida o'ziga xos o'rniga ega. Bu hudud Buyuk Ipak yo'li bo'yida joylashgan bo'lib, ko'plab savdo aloqalarini o'zida mujassamlashtiradi. Xiva xonligining iqtisodiy hayoti ko'plab hunarmandlar va savdogarlarning faoliyati bilan bog'liq bo'lib, bu ikki soha bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir. Shu sababli, ushbu tadqiqotda Xiva xonligida savdo-sotiq masalalarida hunarmandchilikning o'rni va ahamiyati ko'rib chiqiladi.

Ushbu tadqiqotning maqsadi Xiva xonligida hunarmandchilik va savdo-sotiq masalalaridagi o'zaro bog'liqlikni aniqlash va ushbu sohadagi muammolarni hal qilish uchun yangi imkoniyatlarni o'rganishdir. Xiva xonligi tarixiy jihatdan savdo yo'llarining kesishgan joyida joylashganligi va bu hududda hunarmandchilikning rivojlanishi o'zining an'anaviy mahsulotlari va san'at asarlarini ishlab chiqarishga asoslanganligi bilan ajralib turadi.

Asosiy qisim: XVI -asrda Xiva Xitoy, Hindiston va Yevropa bilan aloqalarini o'rnatgan savdo shaharlaridan biri bo'lib, hunarmandlar o'zlarining mahoratlari bilan mahalliy aholi va chet ellik savdogarlar uchun jozibador bo'lgan mahsulotlarini ishlab chiqargan.

Hunarmandchilik – milliy-an'anaviy mayda tovar ishlab chiqarish, oddiy mexnat qurollari yordamida yakka tartibda va qo'l mehnatiga asoslangan sanoat turi; shunday mahsulotlar tayyorlanadigan kasblarning umumiy nomi. Yirik sanoat ishlab chiqarishi vujudga kelishiga qadar keng tarqalgan, ayrim sohalari keyin ham saqlangan. Kam rivojlangan mamlakatlarning xalq xo'jaligida hozir ham muhim o'rin egallaydi.

Hunarmandchilik an'anaviy usullar bilan mahsulotlar ishlab chiqarish jarayonidir (*kulollik, duradgorlik, temirchilik, misgarlik, binokorlik, toshtaroshlik, o'ymakorlik, kashtado'zlik, ko'nchilik, tikuvchilik, to'quvchilik, zargarlik, degrezlik, rixtagarlik, zardo'zlik, bo'yoqchilik, kemasozlik, taqachilik, tunukasozlik* va boshqalar)ga ajraldi.

Hunarmandchilik qanday tabiiy resurslarning mavjudligiga qarab, masalan paxta va pilla bor yerda to'qimachilik, sifatli xomashyo bor yerda kulolchilik, jun va teri ko'p yerda

to'qimachilik va ko'nchilik, shunga qarab kosibchilik, o'rmonlar ko'p yerda yog'ochsozlik, ma'danlarga boy yerlarda metall ishlab chiqarish va temirchilik, dengiz va daryo bo'ylarida kemasozlik va boshqalar rivoj topgan. Xiva xonligidagi hunarmandchilik to'qimachilik, kulolchilik, metalga ishlov berish kabi sohalarni o'z ichiga oladi. Savdo-sotiq esa, mahsulotlar va xizmatlarning almashinuvi bo'lib, hunarmandchilik mahsulotlari ushbu jarayonlarda muhim rol o'ynaydi.

Mahalliy hunarmandlar, o'zlarining mahoratlari, qobiliyatlaridan kelib chiqib va milliy an'analari orqali turli xil mahsulotlar ishlab chiqarishgan. Masalan, Xiva to'qimachilik sanoati matolar, kiyimlar va boshqa to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarib, mahalliy va chet ellik savdogarlar orasida juda mashhur bo'lgan.

Xamyurtimiz Iso Jabborovning yozishicha XIX asrning 60-70 yillarida Xiva hunarmandchiligining 27 ta turi mavjud bo'lgan. Xiva xonligi Rossiya tomonidan istelo qilingandan so'ng hunarmandlar chet ellarga jun po'stin, shoyi mato, xom teri, zargarlik buyumlari eksport qiladigan bo'lganlar va o'z navbatida u tomonlardan temirdan yasalgan buyumlar, anjomlar, garmonika sozi, yevropacha kiyim -kechak mahsulotlarini olib kelishgan.

To'qimachilik: Xiva xonligidagi hunarmandchilikning to'qimachilik sohasida-bo'zchilar, atlaschilar, gilamchilar, sholcha va namatchilar; mahalliy hunarmandlar, o'zlarining mahoratlari, qobiliyatlaridan kelib chiqib va milliy an'analari orqali turli xil mahsulotlar ishlab chiqarishgan. Masalan, Xiva to'qimachilik sanoati matolar, kiyimlar va boshqa to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarib, mahalliy va chet ellik savdogarlar orasida juda mashhur bo'lgan. Bu mahsulotlar, o'z navbatida, savdo aloqalarini kengaytirishga yordam bergan va Xiva xonligining iqtisodiy rivojlanishiga hissa qo'shgan. Ma'lumotlarga qaraganda Xivadan Rossiyaga kelgan elchi Nodir Baxodir o'zi bilan sovg'a sifatida „9 ta qizil baxmal“ keltirganini bildiradi. XIX asrga oid Xiva davlat xujjatlaridan ayon bo'ladiki, xonlik shaharlarida qazma baxmal, guldor baxmal, qipchama baxmal, qizil gulli baxmal turlari ishlab chiqarilgan. Bu ma'lumotlardan ma'lumki xiva xonligida to'qimachilik sohasida ham ijodiy yondashish va rivojlanish bo'lgan.

Kulolchilik: Dunyoning eng qadimiy shaharlaridan biri Xivada o'zining monumental, tiniq grafikasi va geometrik naqshlari bilan ajralib turadigan Xorazm kulolchilik maktabi rivojlangan. Kulolchilik naqshlari qadimiy Ichan-qal'aning mashhur me'moriy yodgorliklari devorlarini qoplagan chiroyli bezaklari bilan juda yorqin uyg'unlik beradi. Chunki bugungi hunarmandlar xon saroylari va masjidlarini bezab turgan xalq hunarmandlarining bevosita avlodlaridir. Kulollar ajdodlari o'rgatganidek o'chmaydigan ko'k, och ko'k va firuza koshinlar yasashda qo'llagan ishlari tahsinga sazovor hisoblanadi. O'rta Osiyo kulolchilik maktablarining eng qadimgisi Xorazmdir. Xorazmning alohida hududiy izolyatsiyasi tufayli Xivada mahalliy kulolchilik uslubi deyarli hech qanday o'zgarishlarga yoki begona ta'sirlarga duchor bo'lmagan. Ming yillar davomida asl shaklida bizgacha yetib kelgan. Bugungi kunda ham xivaliklarning kulolchilik mahsulotlari hususan oshhona idish tovoqlari urfdan qolmagan. Turistlarni e'tiboridan chetda qolmagan estetik go'zal, jozibador naqshlari bilan ajralib turuvchi noyob mahsulotlardan biri hisoblanadi.

Metallni ishlash sohasida: temirchilar, taqachilar, misgarlar, chilangarlar, zargarlar kabi kasblar bo'lgan. Bular hunarmandchilikning tarmoq strukturasi belgilangan. Masalan metallni qayta ishlash sohasida zargarlik rivojlangan.

Zargarlik: Xiva xonligida ayniqsa zargarlik ishlari juda yaxshi yo'lga qo'yilgan va

bugunga qadar rivojlanib kelayotgan hunarmandchilik turlaridan biri hisoblanadi. O'zining nafisligi, betakirorligi, jozibadorligi va takrorlanmasligi bilan zargarlik buyumlari savdo sotiq jarayonida alohida ahamiyat kasb etgan. Bilak uzuk, zirak, uzuk, aravak kabi taqinchoqlar ayollar o'rtasida mashhur bo'lgan. Bugungi kunda ham nafis zargarlik buyumlari ishlab chiqarilmoqda, mahalliy aholi va turistlarga sotilmoqda, shu hunar turi orqali ham oilasini moddiy tamondan ta'minlab kelayotgan zargarlar avlodlari ishlab kelmoqda. Xiva xonligida hunarmandchilik savdo-sotiq jarayonlarining asosiy qismi hisoblangan, hunarmandlar o'zlari qo'l mehnatlari evaziga yaratgan har hil turdagi mahsulotlari orqali ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-madaniy hayotga katta hissa qo'shganlar. Ular nafaqat o'z mahsulotlarini sotish, balki Xiva xonligining madaniy merosini saqlab qolish va rivojlantirishda ham muhim rol o'ynaydi.

Xiva hunarmandchiligining rivoji, mahalliy iqtisodiyotni mustahkamlash va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Hunarmandchilik mahsulotlari, o'z navbatida, savdo aloqalarini kengaytirishga yordam bergan va Xiva xonligining iqtisodiy rivojlanishiga hissa qo'shgan. Savdo-sotiq jarayonida hunarmandchilik mahsulotlari nafaqat ichki bozorda, balki xalqaro savdo aloqalarida ham muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Xiva xonligidan o'tuvchi savdo yo'llari, xususan, Buyuk Ipak yo'li orqali, Xitoy, Hindiston va Yevropa mamlakatlari bilan savdo aloqalarini o'rnatishga imkon bergan. Bu esa hunarmandlarning mahsulotlarini jaxon bozorlarida tanitishga va ulardan yaxshi foyda olishga imkon bergan. Shuningdek savdo sotiqni muntazam amalga oshirish imkoniyatini yaratgan.

Hunarmandchilikning savdo-sotiq jarayonidagi ahamiyati shundaki, u nafaqat iqtisodiy foyda keltiradi, balki mahalliy madaniyatni rivojlantirishga, an'analarning saqlanishiga va ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Hunarmandlar, o'z mahsulotlari orqali, Xiva xonligining madaniy merosini saqlab qolishda va rivojlantirishda ham muhim rol o'ynaydilar. Ular an'anaviy usullarni qo'llab, o'z mahoratlarini avloddan avlodga o'tkazadilar. Shu bilan birga, savdo-sotiq jarayoni hunarmandchilik mahsulotlarining sifatini oshirishga va yangi innovatsiyalarni joriy etishga ham yordam beradi. Mahalliy hunarmandlar, savdo jarayonlari orqali bozordagi talab va ehtiyojlarni o'rganib, ulardan kelib chiqqan holda o'z mahsulotlarini yangilash va takomillashtirish imkoniyatiga ega bo'lganlar. Bu jarayon, o'z navbatida, Xiva xonligida iqtisodiy faollikni oshirishga va ish o'rinlarini yaratishga olib kelgan.

Gilamchilik: Xiva to'qimachiligi mahsulotlaridan gilamlar boy rang-baranglik va sifatli materiallari bilan mashhur bo'lib, Buyuk Ipak yo'li orqali Yevropa va Osiyo mamlakatlariga eksport qilingan. Bu jarayonda, hunarmandlar o'z mahsulotlarini o'ziga xos uslubda ishlab chiqarish orqali, Xiva xonligining savdo obro'sini oshirishga katta hissa qo'shganlar. XXI asrdan to bugungi kungacha xiva gilamlari o'zini sifatini va jozibadorligini yo'qotmay kelmoqda va hozirgi kunda ham haridorgirirligini saqlagan holda savdo sotiq jarayonida asosiy o'rinlarda kelmoqda.

Xiva hunarmandlarining ishlab chiqarayotgan keramika buyumlari va metall mahsulotlari ham yuqori sifatli va san'at asari sifatida baholangan. Xiva xonligidagi hunarmandchilik asosida yaratilgan mahsulotlar asosan, Xiva xonligining bozorlarida va "Ko'kaldosh" yoki "Toshkent" bozorlarida amalga oshirilgan. Mahalliy hunarmandchilik, an'anaviy usullar bilan ishlab chiqarilishni yo'lga qo'yish bilan o'ziga xos bir madaniyatni shakllantirgan.

Bundan tashqari, Xiva xonligida hunarmandchilik va savdo-sotiq jarayonlarida turli xil ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy omillar ham muhim ahamiyatga ega. Savdo aloqalarining kengayishi, hunarmandlar uchun yangi imkoniyatlar yaratgan va ularning mahsulotlariga talabni oshirgan. Biroq, zamonaviy raqobatchilik va globalashuv sharoitida, mahalliy hunarmandlar uchun yangi muammolar yuzaga kelmoqda. An'anaviy usullarni saqlab qolish va yangi texnologiyalarni joriy etish zarurati, hunarmandlar uchun yangi strategiyalarni ishlab chiqishni talab qiladi. Umuman olganda, Xiva xonligida savdo-sotiq masalalarida hunarmandchilikning o'rni, iqtisodiy rivojlanish, madaniy merosni saqlash va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda alohida ahamiyatga ega.

Tadqiqot davomida ko'rsatilganidek, hunarmandchilik Xiva xonligining iqtisodiy rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatgan va bu jarayonlar, aslida, o'zaro bog'liq bo'lgan ko'plab omillardan iborat.

Tadqiqotda ko'rib chiqilgan asosiy topilmalar, Xiva xonligida hunarmandchilikning savdo-sotiq jarayonlarida qanday rol o'ynashi, hunarmandlarning ijtimoiy-iqtisodiy hayotga qo'shgan hissasi va ularning madaniy merosni saqlashdagi ahamiyati haqida muhim ma'lumotlarni taqdim etdi. Shuningdek, hunarmandchilik mahsulotlarining savdo jarayonlarida qanday o'ziga xos o'rin tutishi, mahalliy aholi uchun ish o'rinlari yaratish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdagi roli haqida ham batafsil ma'lumotlar berildi. Ushbu tadqiqotning ahamiyati shundaki, u Xiva xonligidagi hunarmandchilik va savdo-sotiq masalalarining o'zaro aloqalarini yanada chuqurroq tushunishga hamda bu sohalarni rivojlantirishga qaratilgan strategiyalarni ishlab chiqishga yordam beradi. Xiva xonligining tarixiy va madaniy ahamiyatini hisobga olgan holda, tadqiqot natijalari kelajakda mahalliy va xalqaro darajada bu soha bo'yicha yangi tadqiqotlar o'tkazish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, Xiva xonligidagi hunarmandchilik savdo-sotiq masalalarida muhim rol o'ynaydi va bu sohada olib borilayotgan tadqiqotlar, nafaqat iqtisodiy rivojlanishga, balki madaniy merosni saqlashga ham hissa qo'shadi. Shu sababli, tadqiqot natijalarini inobatga olib, kelajakda yanada chuqurroq tahlil va o'rganishlar olib borilishi kerak. Xiva xonligining hunarmandchilik sohasini rivojlantirish, nafaqat mahalliy iqtisodiyotni mustahkamlash, balki ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda ham muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Qisqa qilib aytganda hozirgi Xiva shahrini har tamonlama jadal rivojlanishi uchun hunarmandchilikni milliy an'analarni saqlagan holda taraqqiy ettirish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Milliy jozibadorlikni saqlagan holda zamonaviy uyg'unlikda yaratilgan hunarmandchilik mahsulotlarini yaratishisa savdo sotiqa ikki tamon uchun ham manfaatli bo'lishiga ishonaman.

References:

1. Abdurazakov, S. Hunarmandchilik va iqtisodiy rivojlanish: Xiva xonligi misolida. O'zbekiston Iqtisodiyoti, 2022
2. Khodzhayev, M. Xiva xonligida madaniy meros va hunarmandchilik. Madaniyat va San'at jurnali, 2021
3. Nazarov, A. Xiva xonligidagi savdo-sotiq va hunarmandchilik: tarixiy va zamonaviy nuqtai nazar. O'zbekiston Tarixi jurnali, 2020
4. N.O. Mahmudov, S. A.Narimova va D.R.Ehsonov So'ngi o'rta asrlarda o'rta osiyoda hunarmandchilik markazlarini takomillashtirish asoslari Scientific Journal Impact Factor

2020

5. Toshpo'latov, D. Xiva xonligida savdo-alomalar va hunarmandchilik o'rtasidagi aloqa. Xorazm Davlat Universiteti, 2023
6. U.A.Mirfozilovich, N.U.Ilxomovich Hunarmandchilik markazlari nomli maqolasi 2022
7. Xudoyberdiyev, R. Xiva xonligida hunarmandchilik va savdo-sotiq masalalari. O'zbekiston Milliy Universiteti, 2021